

KUZGI BUG'DOY NAVLARIDA BARG SATHINING SHAKLLANISHIGA URUG'LARNI EKISH MUDDATLARI VA ME'YORLARINING TA'SIRI

Adashev Ilxomjon Qobulovich

Don va dukkakli ekinlar ilmiy tadqiqot instituti laboratoriya mudiri q.x.f.d., katta ilmiy xodim

Annotatsiya: Kuzgi bug'doy Alekseich navini 15-sentabr muddatida 6 mln dona urug' ekilgan variantda 48260,3 m² tashkil etganligi, Zvezda navini 15-sentabr muddatida 6 mln dona urug' ekilgan variantda 44613,8 metr² tashkil etganligini kuzatildi.

Kalit so'zlar: Kuzgi bug'doy, nav, barg satxi, urug', urug' ekish me'yori, urug' ekish muddati, tuproq, variant, qaytariq, ya'rus.

Аннотация: Установлено, что у сорта озимой пшеницы Алексеич в варианте с 6 млн семян, посева 15 сентября, площадь озимой пшеницы Алексеич составила 48 260,3 м², а у сорта Звезда - 44 613,8 м² в варианте с 6 млн семян, посева 15 сентября.

Ключевые слова: Озимая пшеница, сорт, листовая поверхность, семена, норма высева, срок посева, почва, вариант, возврат, отводок.

Abstract. It was established that in the winter wheat variety Alekseich in the variant with 6 million seeds, sowing on September 15, the area of winter wheat Alekseich was 48,260.3 m², and in the variety Zvezda - 44,613.8 m² in the variant with 6 million seeds, sowing September 15th.

Keywords: winter wheat, variety, leaf surface, seeds, seeding rate, sowing time, soil, option, return, layering.

Kirish. Dunyoda bug'doy eksport qiladigan 6 ta yetakchi davlat bo'lib, bular Rossiya, Kanada, AQSh, Avstraliya, Ukraina, Yevropa Ittifoqi hisoblanadi. Rossiya bug'doy eksporti bo'yicha dunyoda 1-o'rinda turadi. Ushbu davlatlarda bugungi kunda yuqori va sifatli don hosili olishda maqbul muddat va me'yorlarda yo'l qo'yilgan kamchiliklar tufayli salbiy natijalar ko'zga tashlanmoqda.

Ilmiy adabiyotlardan ma'lumki, o'simlikda barglar yuzasining ortib borishi bilan barg indeksi 4, 5 ga yetganda bir gektarda 40,50 ming m² barg yuzasi hosil bo'ladi va FARning barglar tomonidan yutilishi maksimal darajaga 75-80 % yoki umumiy radiatsiyaning 40% iga yetadi. Barglar yuzasining yanada oshishi FAR yutilishini oshirmaydi. [2].

O'simlik azotli o'g'it bilan oziqlantirilganida yaxshi hosildor poyalar hosil qiladi, barg sathi katta bo'ladi, fotosintez jarayoni jadal kechadi, o'simlik yaxshi rivojlanadi, boshloqlarida boshloqchalar soni ko'p bo'ladi [5].

Yuqorida keltirilgan sharhlardan ko'rish mumkinki, qishloq xo'jaligi ekinlarining barg sathi yetishtirish agrotexnologiyalariga bog'liq holda o'zgarib boradi. Olib borgan tadqiqotlarimizda ham yuqorida keltirilgan fikrlar yana bir bor o'z isbotini topib, kuzgi bug'doyning barg sathiga urug'larni ekish muddatlari va me'yorlarining ta'siri sezilarli bo'lganligi kuzatildi.

Natijalar va munozara. Jumladan, kuzgi bug'doyning "Aleksich" navi urug'lari ekish muddatlari va urug' ekish me'yorlari bo'yicha variantlar kesimida kuzgi bug'doyning barg sathining shakllanish darajasi o'rganib chiqilganida, urug'lar 1 va 15 oktabr muddatlarida gektariga 4,0 mln dona unuvchan urug' hisobida ekilgan 4-7 variantlarda, urug'lar 15-sentabr muddatida gektariga 4,0 mln dona unuvchan urug' hisobida ekilgan 1-variantga nisbatan maysalash fazasida 342,8-682,2 m²/ga, tuplash fazasida 1220,4-2223,8 m²/ga, naychalash fazasida 1583,6-4549,0 m²/ga, boshloqlash fazasida 1576,5-5476,8 m²/ga, gullash fazasida 1894,2-6429,4 m²/ga, pishish fazasining mum pishish davrida 1368,5-4622,7 m²/ga kamayganligi aniqlangan bo'lsa, gektariga 5,0 mln dona unuvchan urug' hisobida ekilgan 5-8 variantlarda barg sathi 15-sentabr muddatida gektariga 5,0 mln dona unuv-

chan urug' hisobida ekilgan 2-variantga nisbatan maysalash fazasida 450,8-840,7 m²/ga, tuplash fazasida 1382,8-2420,5 m²/ga, naychalash fazasida 1708,2-4805,2 m²/ga, boshloqlash fazasida 1778,6-5937,1 m²/ga, gullash fazasida 2075,8-6876,9 m²/ga, pishish fazasining mum pishish davrida 1410,3-4828,7 m²/ga, gektariga 6,0 mln dona unuvchan urug' hisobida ekilgan 6-9 variantlarda barg sathi 15-sentabr muddatida gektariga 6,0 mln dona unuvchan urug' hisobida ekilgan 3-variantga nisbatan maysalash fazasida 485,8-1017,6 m²/ga, tuplash fazasida 1541,9-3107,9 m²/ga, naychalash fazasida 2145,4-5765,8 m²/ga, boshloqlash fazasida 2014,0-7934,3 m²/ga, gullash fazasida 2372,6-9256,6 m²/ga, pishish fazasining mum pishish davrida 1525,2-6441,8 m²/ga gacha kam bo'lganligi kuzatildi.

Kuzgi bug'doyning "Zvezda" navi urug'lari 15-sentabr, 1-oktabr va 15-oktabr muddatlarida ekilgan variantlarda parvarish qilingan kuzgi bug'doy o'simliklarining barg sathi o'rganilganida, urug'lar 1 va 15 oktabr muddatlarida gektariga 4,0 mln dona unuvchan urug' hisobida ekilgan 13-16 variantlarda barg sathi 15-sentabr muddatida gektariga 4,0 mln dona unuvchan urug' hisobida ekilgan 10-variantga nisbatan maysalash fazasida 459,7-732,0 m²/ga, tuplash fazasida 1447,0-2257,2 m²/ga, naychalash fazasida 1268,1-3631,4 m²/ga, boshloqlash fazasida 1866,5-1613,4 m²/ga, gullash fazasida 2284,9-6083,8 m²/ga, pishish fazasining mum pishish davrida 1531,8-4266,2 m²/ga kam bo'lganligi kuzatilgan bo'lsa, gektariga 5,0 mln dona unuvchan urug' hisobida ekilgan 14-17 variantlarda barg sathi 15-sentabr muddatida gektariga 5,0 mln dona unuvchan urug' hisobida ekilgan 11-variant fazasining mum pishish davrida 688,6-4487,4 m²/ga, gektariga 6,0 mln dona unuvchan urug' hisobida ekilgan 15-18 variantlarda barg sathi 15-sentabr muddatida gektariga 6,0 mln dona unuvchan urug' hisobida ekilgan 12-variantga nisbatan maysalash fazasida 592,5-1080,1 m²/ga, tuplash fazasida 1817,2-3272,8 m²/ga, naychalash fazasida 1987,5-5896,0 m²/ga, boshloqlash fazasida 1613,4-7265,0 m²/ga, gullash fazasida 2027,0-8599,3 m²/ga, pishish fazasining mum pishish davrida esa 1184,5-5823,7 m²/ga gacha kam bo'lganligi qayd etildi.

Kuzgi bug'doy navlarining barg sathiga urug'larni ekish muddatlari va me'yorlarining ta'siri

№	Kuzgi bug'doy navlari	Urug' ekish muddatlari	Urug' ekish me'yor, mln dona/ga	1 ga maydondagi barg sathi, m ²					
				Maysalash	Tuplash	Naychalash	Boshqqlash	Gullash	Pishish (mum pishish)
1	Aleksich	15-sentabr	4,0	5256,0	17283,5	35222,4	48814,3	56956,4	40125,1
2			5,0	6062,3	19989,9	39612,7	55217,0	64394,6	44809,6
3			6,0	6850,6	22598,8	43381,6	60485,9	70497,7	48260,3
4		1-oktabr	4,0	4913,2	16063,1	33638,8	47237,8	55062,2	38756,6
5			5,0	5611,5	18607,1	37904,5	53438,4	62318,8	43399,3
6			6,0	6364,8	21056,9	41236,2	58471,9	68125,1	46735,1
7		15-oktabr	4,0	4573,8	15059,7	30673,4	43337,5	50527,0	35502,4
8			5,0	5221,6	17569,4	34807,5	49279,9	57517,7	39980,9
9			6,0	5833,0	19490,9	37615,8	52551,6	61241,1	41818,5
10	Zvezda	15-sentabr	4,0	5093,9	15861,4	32193,5	43435,4	50518,9	35108,7
11			5,0	5875,1	18328,4	37451,7	50575,5	58493,7	40563,0
12			6,0	6650,8	20768,7	40870,6	56356,9	64918,5	44613,8
13		1-oktabr	4,0	4634,2	14414,4	30925,4	41568,9	48234,0	33576,9
14			5,0	5386,9	16845,9	34593,3	49578,0	57113,3	39874,4
15			6,0	6058,3	18951,5	38883,1	54743,5	62891,5	43429,3
16		15-oktabr	4,0	4361,9	13604,2	28562,1	38301,8	44435,1	30842,5
17			5,0	5040,5	15843,1	32215,2	45089,6	52040,0	36075,6
18			6,0	5570,7	17495,9	34974,6	49091,9	56319,2	38790,1

Xulosa. Tajriba variantlaridan olingan natijalardan ko'rish mumkinki, kuzgi bug'doy navlari barg sathining shakllanishiga ekish muddatlari va urug' ekish me'yorlarining ta'siri sezilarli ta'sir

ko'rsatib, ekish muddatlarining kechiktirib borilishi barcha urug' ekish me'yorlarida bir xil qonuniyatlar saqlangani holda barg sathi kamayib borganligi kuzatildi.

ADABIYOTLAR:

1. Захаров П.Я., Беленков А.И., Крейс В.А., Журкевич О.А. "Влияние основных обработок южных почв на урожайность зерновых и отдельные факторы плодородия" // Ж. Зерновое хозяйство.-Москва, 2005. №5. С. 31-33.
2. Ziyadullaev, Amanov O, Fayzullaev A. "Turli iqlim sharoitlarining yumshoq bug'doy donidagi kleykovina miqdoriga ta'siri" O'zbekiston qishloq va suv xo'jaligi jurnali №3. 2021 yil. B.38-39.
3. Iminov A., Xoliqov B. Takroriy ekinlar hamda kuzgi bug'doy ekish me'yorlarining kuzgi bug'doyning ko'chat qalinligi va don hosildorligi. //O'zPITI. G'o'za va bug'doyning parvarishlash agro-texnologiyalarini takomillashtirish. Toshkent 2003. - 133-135 bet.